

INNOVATSIYALAR – BANKLAR RAQOBATBARDOSHLIGINING MUHIM OMILIDIR

Mustafaqulov Yangiboy Bo‘riqulovich

Toshkent amaliy fanlar universiteti

“Tarmoqlar iqtisodiyoti va buxgalteriyasi”

kafedrası, vazifasini bajaruvchi dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14903978>

Annotatsiya. Barchamizga ma’lum-ki, 2020 yil 12 mayda qabul qilingan “2020 – 2025 yillarga mo’ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to’g’risida”gi Prezidentimiz farmoni asosida kredit tashkilotlari faoliyatiga yangi talablar qo’yilib, mijozlar manfaatdor bo’lgan innovatsion texnologiyalar asosida banklarni yangi operatsiyalarini joriy etishga majbur qilmoqda¹. Bugungi kunda zamonaviy tijorat banklarining eng dolzarb vazifalaridan biri uning ishonchligini oshiradigan raqobatbardosh mahsulot va xizmatlarni taqdim etish qobiliyatini izchil rivojlantirish modelini shakllantirishdan iboratdir. Tashqi muhitning yuqori o’zgaruvchanligi, raqobat kurashining murakkablashuvi, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda moliyaviy munosabatlarning globallasuvi sharoitida bank biznesini rivojlantirish uning raqobat ustunliklarini shakllantirish va ularni samarali boshqarish masalasini tijorat banklari kundalik faoliyatining ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylantiradi.

Kalit so’zlar: innovatsion texnologiyalar, raqobatbardosh mahsulot va xizmatlar, axborot texnologiyalar, tadbirkorlik sub’ektlari, bozor mexanizmlari, intellektual va moliyaviy resurslari.

Kirish. So’nggi yillarda mamlakatimizda bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida xizmat ko’rsatishning bozor mexanizmlari joriy qilinmoqda, tadbirkorlik sub’ektlari va aholi keng qatlamiga maqbul keladigan moliyaviy xizmatlar turlarini kengaytirish, iste’molchilarning qonuniy manfaatlari va huquqlariga rioya qilish, moliyaviy xizmatlar ommabopligini ta’minlash, xizmat ko’rsatish madaniyatini oshirish va bank tizimiga bo’lgan ishonchni yanada yuqori darajaga olib chiqish borasida katta ijobiy o’zgarishlar amalga oshirildi.

Zamonaviy tijorat banklarining intellektual va moliyaviy resurslarini shakllantirishga xodimlarning bilim va malakasini oshirish tizimi sezilarli darajada ta’sir ko’rsatadi. Ularning raqobatbardoshlik salohiyati, asosan, bank boshqaruv tizimiga zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishning samarali usullari va texnologiyalaridan foydalanishga tayyor bo’lgan malakali xodimlarni jalb qilish hisobiga shakllanadi².

Hozirgi paytda doimiy yangiliklar kiritish siyosati muvaffaqiyatli bank siyosatining asosiy omillaridan biri sanaladi. Mazkur fikr bugungi kunda mavjud bo’lgan iqtisodiyot holatini tavsiflaydigan qator shart-sharoitlardan kelib chiqadi. Bular:

- Birinchidan, banklarning mijozlar bilan munosabatlari hamkorlik tamoyillariga asoslanadi. Bu shuni anglatadi-ki, banklar nafaqat mijozlarning kapitalini saqlash haqida, balki moliyaviy-xo’jalik faoliyatini kengaytirish, ishbilarmonlik faolligini oshirish va daromadlilikni ko’paytirishga xizmat qiladigan yangi xizmatlar taklif qilgan holda bu mijozlarning kapitalini oshirish haqida ham qayg’uradi.
- Yangi bank xizmatlari paydo bo’lishining ikkinchi sababi bozor munosabatlari sharoitlarida bank institutlari o’rtasidagi raqobat hisoblanadi. Bozor sharoitlarida omon qolish uchun ishbilarmonlik qarorlari ko’p variantli va nostandart bo’lishi, xo’jalik operatsiyalari o’rtamiyona bo’lmasligi, bank faoliyatining barcha sohalarida innovatsiyalar joriy qilinishi zarur.
- Uchinchi sabab yangi va qimmatbaho bank texnologiyalarining rivoj topishi hisoblanadi. Aynan butun dunyoda iqtisodiy rivojlanishning eng muhim omili sifatida tan olingan fan-texnika taraqqiyoti hozirgi paytda tobora ko’proq innovatsion jarayon tushunchasi bilan bog’lanib bormoqda. Biroq, bank sohasidagi yangiliklar kiritish nafaqat texnik yoki texnologik ishlanmalarni, balki biznesning yangi shakllari, bozorda ishlashning yangi usullari, yangi mahsulotlar va xizmatlar, yangi moliyaviy vositalarni qamrab oladi. Ular

texnologik darajasining yuqori ekanligi, oldingi mahsulot bilan taqqoslaganda tovar yoki xizmatning iste'mol xislatlari yanada yuqoriligi bilan tavsiflanadi.

Innovatsiyalar banklar raqobatbardoshligining eng muhim omili hisoblanadi va ularning iqtisodiy o'sishini ta'minlaydi. Bankning ish samaradorligi va uning bozordagi raqobatbardoshligi ko'p jihatdan yangi bank mahsulotlari, texnologiyalari yoki jarayonlarini joriy qilishga bog'liq bo'ladi. Hozirgi paytda bank xizmatlari jahon bozorida eng ommalashgan va taraqqiy etgan, uch xil yo'nalishda namoyon bo'ladi:

- axborot texnologiyalari va kibernetika texnologiyalari rivojlanishi (oqibatda hisob-kitob risk va bashorat modellarini murakkablashtirish imkoniyati paydo bo'lishi, axborot xavfsizligi vositalarining rivojlanishi va boshqalar);

- bank biznesi yuritishning mijozlarga yo'naltirilgan modeli joriy qilinish;

- tijorat bankining o'z biznes jarayonlarini optimallashtirishi va boshqalar.

Biz bilamiz-ki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ro'y berganda, banklarning rivojlanishni mijozlarga yo'naltirilgan modeliga o'tishga majbur qildi: omon qolish uchun mijozlarning ehtiyojlari tomon maksimal darajada yuz qaratish va faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida mavjud biznes amaliyotini qayta ko'rib chiqishga to'g'ri keldi. Mamlakat miqyosida bank innovatsion faolligini tadqiq etish, shuningdek, muayyan tijorat bankini rivojlantirishning innovatsion strategiyasini shakllantirish bir-biri bilan chambarchas bog'liq ikki omil bo'lib, ularning har biri alohida ravishda yoki befoyda, yoki biron-bir amaliy yondashuvni istisno qiladigan sof nazariy xarakterga ega bo'ladi.

Bankning innovatsion jarayoni ichki bank jarayonlarini shiddat bilan rivojlantirish, tashkil qilish va rejalashtirishga, barcha xizmatlar doirasini yangilashga, bank xizmati sifatini oshirishning yangi usullarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Kelgusida bunday yangilanish jonli mehnat xarajatlarini minimallashtirish, mijozlar sodiqligini oshirish va bank faoliyati rentabelligini oshirishni ta'minlaydi. Shundan kelib chiqib aytish mumkin-ki, mamlakatimizda bank tizimining innovatsion moliyaviy texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlar joriy qilishga tayyorligini isbotlaydigan quyidagi omillarni ajratib ko'rsatish mumkin:

♣ inflyatsiyaning o'sish sur'atini sekinlashuvi;

♣ bank xizmatlari bozorida raqobatning kuchayishi;

♣ moliya va bank tizimlari uchun mutaxassislar tayyorlashning kuchayishi;

♣ iqtisodiy o'sish sur'atining barqaror ravishda yuqoriligi;

♣ internetdan faol foydalanuvchi hisoblangan bank mijozlarining yangi bank xizmatlari va mahsulotlariga qiziqishini ortishi va boshqalar.

Bank sohasida innovatsiyalarni iqtisodiy toifa sifatida talqin qilishda, innovatsiyalarni o'z ortidan tijorat banklari faoliyat jarayonlarining o'zgarishiga olib kelgan, harakatlar natijasi sifatida tushunish birinchi o'ringa chiqib oladi. Bunday mualliflik yondashuviga muvofiq, mavjud bank mahsulotlari va xizmatlari, texnologiyalarini modernizatsiya qilish yoki yangilarini ishlab chiqish sohasida amalga oshiriladigan o'zgarishlar, tijorat banklarida innovatsion jarayon tahlilining predmeti hisoblanadi. Bank menejmenti sohasida o'ringa ega bo'lgan va tashkiliy o'zgarishlarga mansub bo'lgan o'zgarishlar ko'pincha bank biznesi yuritish texnikasi va texnologiyasidagi o'zgarishlar bilan bog'liqlikda ko'rib chiqiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkin-ki, barcha sohalar kabi mamlakatimiz bank tizimida ham innovatsiyalarning o'rni beqiyosdir. Innovatsiyalar banklar raqobatbardoshligining muhim omili hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida, raqobat bor joyda iqtisodiy o'sishni ta'minlashga zamin yaratadi va iqtisodiy barqarorlikni kafolatlaydi – desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 25.01.2020 yil.

2. Андреева А. В., Хатламаджиян Д. Г., Шелепов В. Г. Управление компетенциями персонала в системе обеспечения конкурентоспособности банка // Пространство экономики. 2012..